



ELEKTRON TIJORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI

Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

muhayyo.ravshanova@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif tomonidan innovatsion iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat tizimini rivojlantirishning ekonometrik modellarini tuzishda omillarning ishtiroki haqida fikr mulohazalar mavjud. Elektron tijoratning bugungi kundagi dolzarbligi va ahamiyati haqida ham tushunchalar taqdim etilgan. Muallif elektron tijorat va unga ta'sir etuvchi omillarni keltirib o'tgan va ularga ta'rif bergan. Hususan elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida texnik omillar, raqamli infratuzilma, iqtisodiy omillar, ijtimoiy omillar, huquqiy va siyosiy omillar va madaniy omillarni ta'sir etuvchi omil sifatida qayt etgan.

Аннотация

В данной статье автор представляет размышления о влиянии факторов на построение эконометрических моделей развития системы электронной коммерции в условиях инновационной экономики. Также изложены представления о актуальности и значении электронной коммерции на сегодняшний день. Автор выделил электронную коммерцию и влияющие на неё факторы, дав им определение. В частности, в качестве основных факторов, влияющих на развитие электронной коммерции, отмечены технические факторы, цифровая инфраструктура, экономические факторы, социальные факторы, правовые и политические аспекты, а также культурные факторы.

Annotation

In this article, the author presents reflections on the role of factors in developing econometric models for the growth of the e-commerce system in the context of an innovative economy. The article also provides insights into the current relevance and significance of e-commerce. The author highlights e-commerce and the factors influencing it, offering definitions for each. In particular, the key factors affecting the development of e-commerce are identified as technical factors, digital infrastructure, economic factors, social factors, legal and political aspects, as well as cultural factors.

Kalit so'zlar

electron tijorat, model, ko'p omilli regressiya tenglamasi, innovatsion iqtisodiyot, natijaviy va ta'sir etuvchi omil, internet, onlayn savdo.

Ключевые слова

Электронная коммерция, модель, многофакторное регрессионное уравнение, инновационная экономика, результативный и влияющий фактор, интернет, онлайн-торговля.

Keywords

E-commerce, model, multiple regression equation, innovative economy, dependent and independent variable, internet, online trade.

Kirish

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish jarayonida, axborot texnologiyalari va internet tarmoqlari orqali iste'molchilar, kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari hamda davlat soliq xizmati organlarining uyg'unlashgan faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Savdo va xizmat ko'rsatish sohasini yanada erkinlashtirish, uning hajmini keskin oshirish, hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, savdo xizmatini ko'rsatish shaffofligini ta'minlash, tadbirkorlik sub'ektlarining savdolarida teng imkoniyatlarini ta'minlash, ayniqsa davlat xaridlari tizimida elektron savdolaridan foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [1].

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatimizni mintaqaviy "IT-HUB" ga aylantirish vazifasi belgilangan. Shu maqsad yo'lida raqamli texnologiyalar bosqichma-bosqich rivojlantirib kelinmoqda. Barcha hududlarda IT-parklar tashkil etilib, bu sohada o'qish va ishlash uchun imkoniyat kengaydi. Internet tezligi va qamrovi oshdi, 190 mingdan ziyod aholi ishli bo'ldi. So'nggi yillarda sohada 3 milliard dollar investitsiyalar o'zlashtirilgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 2017-yilga nisbatan 8,5 barobar o'sib, ularning soni mingtadan oshgan. Bugun soha vakillarining har o'ntadan bittasi shunday xalqaro korxona. Shuningdek, yetti yil avval 12 ta eksportchi korxona bo'lgan bo'lsa, bu yil 650 ta bo'ldi. Yil yakuni bilan axborot texnologiyalari va aloqa xizmatlari eksporti 900 million dollardan oshadi [2].

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va internet tezligining oshishi natijasida mamlakatda elektron tijoratning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Aholi o'rtasida onlayn savdolar yani internet do'konlarning samaradorligi ijobiydir, shu sababdan oflayn savdo yurutuvchi do'konlar ham elektron platformlardan foydalangan holda o'z tadbirkorlik faoliyatini olib bormoqda. Ushbu tadbirkorlik yo'nalishida kompyuter texnologiyalari, mobil aloqa vositalarining o'ni beqiyosdir. Mazkur raqobat shaklida innovatsion usullarni qo'llash raqobatda ustulikni saqlab qolish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Yaser Ahangari Nanehkaran o'zining "An Introduction to Electronic Commerce" asarida elektron tijoratni inson hayotini tubdan o'zgartirgan kuchli tushuncha va jarayon sifatida ta'riflaydi. Ushbu asarda elektron tijoratning asosiy tushunchalari,

tarixi, tuzilmalari, modellari, afzalliklari va cheklovlari batafsil yoritilgan. Muallif, shuningdek, elektron tijoratning iqtisodiyotdagi o'rnini va uning axborot texnologiyalari hamda telekommunikatsiya tarmoqlari bilan aloqasini ta'kidlaydi. Asar elektron tijoratning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qiziquvchilar uchun muhim manba hisoblanadi [2].

Jeffrey B. Ritter o'zining 1992-yilda "Defining International Electronic Commerce" nomli maqolasida elektron tijoratni xalqaro miqyosda tovarlar va xizmatlarning raqamli platformalar orqali almashinuvi sifatida ta'riflaydi. Ushbu maqolada muallif elektron tijorat texnologiyalarining xalqaro savdoda an'anaviy to'siqlarni qanday yengib o'tayotgani va biznes amaliyotlarini qanday o'zgartirayotganini tahlil qiladi. Ritterning ta'kidlashicha, elektron tijorat kompyuter va telekommunikatsiya tizimlarining funksional imkoniyatlarini birlashtirib, kompaniyalarga qog'oz hujjatlar o'rniga elektron shaklda ma'lumot almashish imkonini beradi. Bu esa tijorat operatsiyalarini muzokara qilish, tasdiqlash va bajarishda aniqlik, tezlik va samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, elektron tijorat geografik, lingvistik va madaniy farqlar kabi xalqaro savdoda uchraydigan an'anaviy to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi. Muallif xalqaro elektron tijoratni rivojlantirish global savdo hamjamiyati uchun yuqori ustuvor vazifa ekanligini ta'kidlaydi [3,4].

Iqtisodchi olimlardan Raximov, A. N., Juraev, F. D., Rahimov, A. M., G'.X. Maxmatqulovlarning ilmiy qarashlarida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, texnik-texnologik, axborot, intellektual, dasturiy resurslar yangilanish qonunlari ta'sirida innovasion xarakterdagi resurslarga aylanishi mumkinlik g'oyasi ilgari suriladi [5,6,7,8].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolani yozishda ilmiy abstraksiyalash, tasviriy statistika, ekspert baholash, guruhlashtirish usullaridan foydalanib, mavzuga bog'liq ko'plab ilmiy nashrlar talqin qilindi, ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda ilmiy mushohada, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Makroiqtisodiy darajada elektron tijoratning kelib chiqishi tashqi yoki ichki omillar asosida sodir bo'ladi. Masalan, AQShda ichki omillar–ilmiy-texnologik innovatsiyalar elektron tijoratning vujudga kelishiga va dunyoga tarqalishiga olib keldi. O'zbekistonda esa AQShdan farqli ravishda, tashqi omillar– xalqaro savdo aloqalari O'zbekistonda elektron tijoratning kirib kelishini boshlab berdi. Shu ma'noda biz globallashtirish va elektron tijoratning rivojlanishi bir-birini to'ldirishga moyilligini ko'ramiz. Ya'ni, elektron tijorat jismoniy do'konlarga ega bo'lmagan holda dunyo bilan xalqaro savdo yo'llarini ochadi, bunga javoban jismoniy do'konlar yoki savdoda odamlarning o'zaro aloqasi bo'lgan mamlakatlar savdoning yangi usulini qo'llashlari kerak. Dunyoga mashhur kompaniyalar o'z mahsulotlarini rivojlanayotgan mamlakatlarda sotish bilan birga yangi texnologiyalarni joriy qilmoqdalar. Geografik omil tranzit mamlakatlarda, bandargohlari bo'lgan mamlakatlarda amaliyotga qo'llash jarayonini tez-lashtiradi, lekin O'zbekistonda bu mantiqsiz ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. O'zbekistonda elektron tijoratning paydo bo'lishi mamlakatimiz boshqa davlatlar bilan savdo sohasida yetakchi

bo'lgan davrda tashqi iqtisodiy-siyosiy omillar bilan boshlandi. Keyin ushbu hujjatlarni qonuniylashtirish zarurati paydo bo'ldi, natijada hukumat tomonidan elektron tijorat va naqd pulsiz pul to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Shunga qaramay, texnologik infratuzilma, mutaxassislarning yetishmasligi va ijtimoiy munosabat dastlab elektron tijoratni joriy qilishni qo'llab-quvvatlamadi – bu elektron tijoratni amalga oshirishni noto'g'ri boshqarish natijasi edi. O'sha paytda xalqaro riteylerlar avvalgidek o'z bizneslarini davom ettirdilar: ular o'z filiallarini ochdilar. Bosh ofis va mahalliy filial o'rtasidagi hamkorlik elektron tijorat edi, ammo mahalliy bo'lim mijozlar bilan an'anaviy hamkorlik qildi.

Elektron tijorat tizimi – bu mahsulotlar va xizmatlarning onlayn sotuvlari orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir. Bu, nafaqat internetda savdo qilishni, balki marketing, moliya, logistika va mijozlarga xizmat ko'rsatish kabi jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Elektron tijoratning rivojlanishi global miqyosda iqtisodiyotning muhim qismiga aylangan.

Elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida texnik omillar, raqamli infratuzilma, iqtisodiy omillar, ijtimoiy omillar, huquqiy va siyosiy omillar va madaniy omillarni ta'sir etuvchi omil sifatida olish mumkin.

Elektron tijoratni rivojlantirishda birinchi navbatda internet tarmog'i bilan ta'minlanganlik va internet tezligi muhim ahamiyatga egadir. Bu esa onlayn savdoning rivojlanishi va xaridorning tanlov imkoniyatini kengligini zamin yaratadi. Bugungi kunda aholini yuqori tezlikdagi internet texnologiyalari bilan ta'minlash va internet sifatini oshirish borasida bosqichma bosqich ishlar amalga oshirilmoqda. Elektron texnologiyalarni yana bir texnologik omillaridan biri bu traqamli infratuzilmadir. Bunda aholiga xavfsiz to'lov tizimlarini yaratish va yetkazib berish va logistika xizmatlarini raqamlilashtirish ham muhim ahamiyatga egadir. Elektron tijorat tizimining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi bir nechta asosiy omillar tahlil qilinadi. Bu omillar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin.

Birinchi dan texnologik infratuzilma-internet tezligi, onlayn to'lov tizimlarining rivojlanishi, raqamli xavfsizlik tizimlarining ishonchliligi.

Ikkinchi dan ijtimoiy omillar-xalqaro aloqalar, iste'molchilarning onlayn xarid qilishga nisbatan qiziqishi, raqamli savodxonlik.

Uchunchidan hukumat siyosati-davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi qonunlar, soliq siyosati, ruxsatnomalar va regulyatsiya.

To'rtinchidan raqobat muhit-mahalliy va global raqobatchilar, innovatsiyalar va mahsulot diversifikatsiyasi.

Elektron tijoratga ta'sir etuvchi omil sifatida iqtisodiy omillardan biri bu aholining daromadlari darajasidir. Sababi aholi daromadlari qanchalik yuqori bo'lsa, onlayn xaridlarga talabi shunchalik ortadi. To'lov tizimlari va moliyaviy xizmatlar elektorn hamyonlar va kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalarini qamrab oladi.

Ijtimoiy omillarning elektron tijoratga ta'siri doirasida onlayn savdolarida haridorning maxfiylik siyosati, to'lov xavfsizligi iste'molchilarning ishonchini oshiradi. Tezkor yetkazib berish va sifatli xizmat mijozlarning sodiqligini oshiradi. Bugungi kunda onlayn savdolar bilan shug'ullanuvchilarning asosiy qismini yoshlar ya'ni 18-35 yosh oralig'idagi iste'molchilarni tashkil etadi va bu demografik omil elektiron tijoratning yoshlar o'rtasida jadal rivojlanayotgani isbotidir.

Elektron tijoratga ta'sir etuvchi yana bir omillardan biri huquqiy va siyosiy omillardir. Bugungi kunda Respublikamizda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar elektron tijoratning rivoji uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Elektron shartnomalar, elektron imzo va onlayn to'lov tizimlarini tartibga soluvchi qonunlar, foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilishga oid qonun hujjatlarini ham misol qilish mumkin. Elektron tijorat qonun hujjatlari 2004-yildan beri amalda bo'lgan qonunni almashtiradi. Hujjat loyihasi Oliy Majlis quyi palatasi tomonidan 2022-yil mart oyida qabul qilingan, sentabrda Senat tomonidan ma'qullagandi.

Madaniy omillarning elektron tijoratga ta'siri sifatida turli onlayn savdo platformlarning halqning madaniyati va qadriyatlariga mos tarzda yaratilganligi hamda mijozlar foydalanuvchi tilda bo'lish muhim ahamiyatga egadir.

Ekonometrik modellash – bu iqtisodiy va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish uchun matematik usullarni qo'llashdir. Elektron tijorat tizimining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishda ekonometriya modellaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ekonometrik modellarini qurishda panel ma'lumotlari: Turli davrlar bo'yicha ko'plab mamlakatlar yoki shaharlar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bu model yordamida vaqt va makon omillarini birga o'rganish mumkin.

ARIMA va VAR modellar: Elektron tijoratni prognoz qilishda vaqt qatori tahlili uchun ishlatiladi.

Regressiya tahlili: Elektron tijorat va uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi munosabatni aniqlash uchun regressiya tahlili (masalan, chiziqli regressiya yoki ko'p o'zgaruvchili regressiya) ishlatiladi.

Ekonometrik modellarini qurishda biz ko'p omilli regressiya tenglamasida elektron tijoratni nativaviy omil sifatida belgilab, unga ta'sir etuvchi omillarga esa;

Y - Elektron tijorat hajmi (masalan, million so'mda).

X1-Internet foydalanuvchilari soni (% aholi qamrovi).

X2-Elektron to'lov tizimlarining kengayishi (foydalanuvchilar soni).

X3-Logistika va yetkazib berish xizmatlarining sifati (yetkazib berish o'rtacha vaqti, kunlarda).

X4-Aholi o'rtacha daromadi (ming so'm)ni ko'rsatish mumkin.

Mazkur omillarni elektron tijoratga ta'sir etuvchi omillar sifatida qabul etib, uning statistik ma'lumotlari jamlanadi, omillar orasidagi korelyatsion bog'liqlik aniqlanib, ekonometrik model quriladi. Qurilgan model asosida tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun esa elektron tijoratning xavfsizligini ta'minlashda va yangi texnologiyalarni joriy qilishda muhim qadam bo'lib, to'lov tizimlarining xavfsizligi va foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, elektron tijoratning rivojlanishiga to'siq bo'luvchi kiberxavfsizlik tahdidlari va to'lov tizimlaridagi integratsiya muammolari o'rganilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, to'lov tizimlarining tezligi, ishonchliligi va xavfsizligi mijozlar ishonchini oshiradi va ularning elektron tijoratga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalarni joriy qilish va xavfsizlikni kuchaytirish orqali, elektron tijoratning samarali rivojlanishiga yordam

berish mumkin. Shu maqsadda bugungi kunda elektron tijoratda innovatsiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Ta'sir etuvchi omil sifatida qonunchilik va davlat siyosatining ahamiyati muhim o'rin egallamoqda. Bugungi kunda iqtisodiyotni raqamlilashtirish nafaqat iste'molchi balki tadbirkor uchun ham zarurdir. Ekonometrik modellari yordamida elektron tijoratning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri va asosiy omillarni aniqlashga harakat qilinadi. Bu tahlil asosida elektron tijoratning samarali rivojlanishi uchun qaysi omillarni kuchaytirish kerakligi va qanday strategiyalarni amalga oshirish muhimligi haqida xulosalar chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// 29.12.2020 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish rejalari".// 27.12.2024 y.
3. Nanekaran, Yaser Ahangari. An Introduction to Electronic Commerce. 2013.
4. Ritter, Jeffrey B. "Defining International Electronic Commerce." Northwestern Journal of International Law & Business, vol. 13, no. 1, 1992, pp. 127-150.
5. Равшанова, М. М. (2024). Значение педагогических экспериментов в развитии эконометрических навыков учащихся. Экономика и социум, (3-1 (118)), 836-839.
6. Равшанова Мухайё Максманазаровна. (2023). Талабаларни эконометрика фанини о'қитишда педагогическая технологиялар тушунчаси ва унинг аспекти. Материалы Международной конференции по современной науке и научным исследованиям , 2 (4), 153–156.
7. Рахимов, А. Н., Махматкулов, Г. К., и Рахимов, А. М. (2021). Построение эконометрических моделей развития сферы услуг для населения региона и их прогнозирование. Американский журнал прикладных наук , 3 (02), 21–48.
8. Равшанова Мухайё Махманазаровна (2025). Навыки, необходимые для выполнения двухфакторного эконометрического анализа. Европейский международный журнал педагогики , 5 (01), 50–53.